



**3/2023**

Научный вестник Бухарского государственного университета  
Scientific reports of Bukhara State University



# BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



**3/2023**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMY AXBOROTI  
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY  
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**

**Ilmiy-nazariy jurnal**

**2023, № 3**

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruruiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

**Muassis: Buxoro davlat universiteti**

**Tahririyat manzili:** 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.  
Elektron manzil: nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

**TAHRIR HAY'ATI:**

**Bosh muharrir:** Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bosh muharrir o'rinnbosari:** Rasulov To'lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

**Mas'ul kotib:** Shirinova Mexrigyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich**, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

**Danova M.**, filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

**Margianti S.E.**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

**Minin V.V.**, kimyo fanlari doktori (Rossiya)

**Tashqarayev R.A.**, texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

**Mo'minov M.E.**, fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

**Adizov Baxtiyor Rahmonovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Abuzalova Mexriniso Kadirovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Amonov Muxtor Raxmatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Barotov Sharif Ramazonovich**, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

**Baqoyeva Muhabbat Qayumovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich**, biologiya fanlari doktori, professor

**Djurayev Davron Raxmonovich**, fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Durdiev Durdimurod Qalandarovich**, fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Olimov Shirinboy Sharofovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Qahhorov Siddiq Qahhorovich**, pedagogika fanlari doktori, professor

**Umarov Baqo Bafoyevich**, kimyo fanlari doktori, professor

**Murodov G'ayrat Nekovich**, filologiya fanlari doktori, professor

**O'rayeva Darmonoy Saidjonovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Hayitov Shodmon Ahmadovich**, tarix fanlari doktori, professor

**To'rayev Halim Hojiyevich**, tarix fanlari doktori, professor

**Rasulov Baxtiyor Mamajonovich**, tarix fanlari doktori, professor (Andijon davlat Pedagogika instituti rektori)

**Boboyev Feruz Sayfullayevich**, tarix fanlari doktori (O'zR FA tarix instituti yetakchi ilmiy xodimi)

**Jo'rayev Narzulla Qosimovich**, siyosiy fanlar doktori, professor

**Qurbanova Gulnoz Negmatovna**, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

**Jumayev Rustam G'aniyevich**, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

**Quvvatova Dilrabo Habibovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Axmedova Shoira Nematovna**, filologiya fanlari doktori, professor

**Amonova Zilola Qodirovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

**Zaripov Gulmurot Toxirovich**, texnika fanlari nomzodi, dotsent

<b>MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS</b>		
<b>ANIQ VA TABIIY FANLAR *** EXACT AND NATURAL SCIENCES *** ТОЧНЫЕ И ЕСТЕСТВЕННЫЕ НАУКИ</b>		
<b>Norqulov J.F., Azimov R.B., Amirov A.A.</b>	G'ildirak tishlariga ta'sir qiladigan eguvchi kuchlanishni tish yuzasi qattiqligiga bog'liqligini o'rganish va takomillashtirish	3
<b>Tukhtaev B.J., Kanokova Sh.Z., Xudoyberdiyeva Sh.A., Olimov X.K.</b>	Анализ средних поперечных импульсов частиц при столкновении Au+Au и Pb+Pb в сфере энергии ( $s_{nn}$ ) <sup>1/2</sup> =62-5020 GeV	8
<b>Masharipov S. I.</b>	Hardy Littlewood Polya relation for nonlinear reflections	12
<b>Umarov S.H., Hasanov N.Z., Hallokov F.K., Narzullaeva Z.M.</b>	Effect of pressure and thermal expansion on the optical absorption edge and the deformation potential model in TLGAS <sub>2</sub>	16
<b>Xayitova X.G'.</b>	Ikkinci tartibli matritsaviy model operatorning ba'zi spektral xossalari	23
<b>Aliyeva T.A.</b>	Features of the natural growth development of urban population in Nakhchivan economic region	29
<b>TILSHUNOSLIK *** LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ</b>		
<b>Asadov T.H.</b>	O'zbek tilidagi murakkab tarkibli ayrim affikslarning tabiat xususida (ravishga nisbat beriladigan affikslar misolida)	37
<b>Azimov I.M.</b>	Miyon Buzrukning adabiy til, istiloh masalalariga munosabati	42
<b>Bozorova R.Sh.</b>	Nemis tilida gidronimlarning kelib chiqish tarixi	48
<b>Davlatova M.H.</b>	Ikkilamchi predikat bilan ifodalanadigan rezultativ tuzilmalar turlari xususida	55
<b>Fayzullayev O.M., Ergasheva G.R.</b>	Lingvomadaniyatshunoslikning fan sifatida shakllanishi, rivojlanish bosqichi va sohani o'rganishga doir yondashuvlar	60
<b>Shirinova M.Sh., Rzayeva Ch.V.</b>	Kinofilmlar tilida evfemizmlarning tutgan o'rni va ahamiyati	64
<b>Хидирова Г.Х.</b>	Замонавий терминологияда терминнинг объектив таърифи, тавсифи ва чегарасини ажратиш муаммолари	69
<b>Hamroyeva N.N.</b>	Shaxslararo muloqot jarayonida dialogik diskursning o'rni va kommunikativ strategiyalar	76
<b>Ismoilova D.R.</b>	Language crimes in English language	81
<b>Narzullayeva F.O.</b>	Tilning nominativ va ekspressiv funksiyalarining o'rganilishi	85
<b>Rabieva M.G'.</b>	Olamning kontseptual manzarasi kognitiv tajribaning muhim komponenti sifatida	90
<b>Rasulov Z.I., Sharopov Sh.Sh.</b>	Kooperatsiya tamoyilining pragmalingvistikadagi o'rni	94
<b>Uzakova L.A.</b>	O'zbek va ingliz tillarida to'y bilan bog'liq leksik birliklarning lingvokulturologik tadqiqi: ingliz to'y marosimimlarini o'rganish	99
<b>Xolova Sh.D.</b>	"Avoir" fe'li ishtirokidagi inson his-tuyg'ularini ifoda etuvchi frazemalar tarjimasining o'ziga xosliklari	103
<b>Xudoyev S.S.</b>	O'zbek va nemis topishmoqlarida metaforik birliklarning antropotsentrik tadqiqi	108
<b>Xusainova Z.Y.</b>	Tabiiy tilni qayta ishlash (NLP)da stemming jarayoni tavsifi	113
<b>Yusupova D.Y.</b>	Euphemistic findings of the poet Halima Khudoiberdiyeva	120

<b>Одилова Г.К.</b>	Болалар адабиётида глюттоник дискурс таржимасида услуга маъно адекватлиги	126
<b>Жумаев А.А.</b>	Ўзбек ва немис бадиий матнларида орнитопоэтонимларнинг маъно оттенкалари	132
<b>Murtazoyev O.N.</b>	Intertekstuallikning tilshunoslikda qo'llanilishi	136

**ADABIYOTSHUNOSLIK \*\*\* LITERARY CRITICISM \*\*\* ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ**

<b>O'rayeva D.S., Adizova O.I.</b>	Folklore in the context of modern culture	140
<b>Eshonqulova G.T.</b>	Badiiy asarda ma'noni implisit ifodalashning kommunikativ strategiyalari	149
<b>Курбанов С.С.</b>	“Ўткан кунлар” романида оқил оталар образи талқини	154
<b>Muxammadova M.M.</b>	"Ko'hkan" taxallusi bilan she'rlar yozgan Shayboniy hukmdor talqini	158
<b>Ganieva O.Kh., Rajabova Z.T.</b>	The concept of the motif of loneliness in 20th century American literature	163
<b>Sultonova D.S.</b>	Ingliz adabiyotida kriminal mavzudagi prozaik asarlar taraqqiyoti	167
<b>Umarov U.A.</b>	Characteristic features of hero archetype in the example of Harry Potter	171
<b>Umurova N.R.</b>	“Iqrornoma” va islom falsafasi	176
<b>Urmonova N.M.</b>	The deontology of translation and interpretation	181
<b>Babayev O.A.</b>	Jaloliddin Rumiy asarlarining arab tiliga qilingan tarjimalarda g'arb tarjimalari ta'siri	186
<b>Бахронова М.А.</b>	Бадиий адабиётда касалликлар рамзи	191
<b>Бокарева М.А.</b>	Пути развития русского реализма рубежа xx-xxi веков: от соцреализма до экзистенциального постреализма	196
<b>Жамилова Б.С.</b>	Ўзбек ва турк болалар адабиётидаги муштарак туйғулар	203
<b>Nuritdinova Sh.S.</b>	Hamza Imonberdiyev she'riyatida ramziyilik va erk motivi ifodasi	210
<b>Ражабова Р.З., Ражабова Г.З.</b>	Эртак жанри стилизациясининг асослари ва тараққиёт хусусиятлари	215
<b>Usmonova Z.H.</b>	Rey Bredberining “Marsga hujum” (“Марсианские хроники”) asarida tarjima xususiyatlari va tarjimon uslubi	221
<b>Sadigova N.E.</b>	Romanticism of Byron and his work “Cain”	227

**MATNSHUNOSLIK VA ADABIY MANBASHUNOSLIK \*\*\* TEXTOLOGY AND LITERARY SOURCE STUDY \*\*\* ТЕКСТОЛОГИЯ И ЛИТЕРАТУРНОЕ ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ**

<b>Maqsudova N.U.</b>	Ziyovuddin Haziniy she'rlarining manbalari	233
<b>“NAVOIY GULSHANI”</b>		
<b>Ражабова М.Б.</b>	Риёву ужбу ҳасад дафъин эт ...	237

**PEDAGOGIKA \*\*\* ПЕДАГОГИКА \*\*\* PEDAGOGICS**

<b>Bahronova B.B.</b>	Abdurauf Fitratning axloqiy-tarbiyaviy qarashlari	240
<b>TARIX *** ИСТОРИЯ *** HISTORY</b>		

<b>Muminov D.A.</b>	Samarqandga evakuatsiya qilingan sanoat korxonalari va ularning faoliyati	244
<b>Raxmatulloev M.X.</b>	Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ommaviy axborot vositalarining tarixi va rivojlanish bosqichlari	249
<b>Xakimov J.N.</b>	Buxoro amirligi va Rossiya imperyasining savdo-sotiq munosabatlarining yo'lga qo'yilishi	253

## TILNING NOMINATIV VA EKSPRESSIV FUNKSIYALARINING O'RGANILISHI

Narzullayeva Firuza Olimovna,

Buxoro davlat universiteti

Tarjimashunoslik va ingvoddidaktika

kafedrasi o'qituvchisi

[f.o.narzullayeva@buxdu.uz](mailto:f.o.narzullayeva@buxdu.uz)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tilning nominativ va ekspressiv funksiyaga ega ekanligi, til elementalrida, ayniqsa, so'zda o'z aksini topishi hamda ularning ingliz va o'zbek tillarida qo'llanishi, tilshunoslikda semasiologik yo'nalishdagi tadqiqotlar, olib borilishi, pragmatika – hodisa, predmetni anglatib, so'z, shu bilan birga uning dinamik butunlikdagi, tarixiy borliqdagi aloqa va munosabatlarini ham bildirishi."Borliqning bir bo'lagini" va bu bo'lakning mazkur borliqning boshqa unsurlariga nisbatan munosabatini tushunishini aks ettiradi. Bu munosabatlarning muayyan davrdagi jamiyat va xalq tomonidan qanday anglashilgani va anglashilayotganini aks ettirishi haqida fikr yuritiladi

**Kalit so'zlar:** nominativ, ekspressiv, stilistik bo'yoq, qo'shimcha ma'no, semasiologiya, pragmatika, denotativ, konnotativ, ingerent, adgerent.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается тот факт, что язык имеет номинативно-экспрессивную функцию, что находит отражение в языковых элементах, особенно в словах, и их употреблении в английском и узбекском языках. Исследование в направлении семасиологии в языкознании, прагматика - явление, предметное значение, в то же время выражает связь и отношения в динамическом целом, историческом бытии, и отражает понимание «части бытия» и отношение этой части к другим элементам этого бытия. Приводятся мнения о том, как эти отношения понимались и понимаются обществом и людьми определённого периода.

**Ключевые слова:** номинатив, экспрессив, стилистическая окраска, дополнительное значение, семасиология, прагматика, денотатив, коннотатив, ингерент, адгерент.

**Annotation:** This article discusses the fact that language has a nominative and expressive function, which is reflected in language elements, especially in words, and their use in English and Uzbek languages. Research in the direction of semasiology in linguistics, pragmatics - phenomenon, object meaning, the word, at the same time, it expresses the communication and relations in the dynamic whole, the historical existence, and reflects the understanding of "a part of existence" and the relation of this part to other elements of this existence. It is thought about how these relations were understood and are being understood by the society and the people of a certain period.

**Key words:** nominative, expressive, stylistic color, additional meaning, semasiology, pragmatics, denotative, connotative, inherent, adherent.

### Kirish

Kishilar orasida muhim aloqa vositasi bo'lgan til nominativ, kommunikativ xususiyatlarga ega bo'lgan murakkab hodisadir.Tilning nominativ va ekspressiv funksiyaga ega ekanligi, til elementalrida, ayniqsa, so'zda o'z aksini topadi.

Tilshunoslar tilda ikki xil ma'no: denotativ (atash) va konnotativ (qo'shimcha) ma'no mavjudligini qayd etadilar. So'zning qo'shimcha ma'nosini turli nomlar bilan ataladi. Chunonchi stilistik bo'yoq, qo'shimcha ma'no (сознание), ekspressiv ma'no ottenkasi. So'z semantikasi faqat denotativ (atash) ma'nosini bilan cheklanib qolmay, so'zda konnotativ ma'no ham mavjud. Keyingi davrdagi ilmiy ishlarda til birliklaridagi denotativ ma'nolar umumtilshunoslikda atroflicha o'rganilganligi qayd etilgan.

So'zning denotativ (atash) ma'nosiga bag'ishlangan turli darslik, o'quv qo'llanmalari, monografik tadqiqotlar yaratilgan. Ammo konnotativ ma'no til yaruslarining barchasida mavjudligiga qaramasdan, ular to'g'risida hali yetarlicha ilmiy xulosalar chiqarilmagan. Bu tilshunoslikda semasiologik yo'nalishdagi tadqiqotlar olib borishni kuchaytirishini taqozo etadi.

Konnotativ ma'noning turlari, ularning so'zni til va nutq elementi sifatida olingan holatlarda so'z semantikasiga munosabati, shuningdek, fonetik vositalarda ifodalangan konnotativ ma'nolar, ya'ni nutq

## LINGUISTICS

tovushlarining talaffuzi bilan bog'liq uslubiy xususiyatlar, tilda mayjud supersegment fonetik vositalarda ifodalangan qo'shimcha ma'no "bo'yog'i" hamda morfologik birlklarda ifodalangan konnotativ ma'nolar tadqiqi kabi qator masalalar tilshunoslikda haligacha uzil-kesil o'z yechimini topganicha yo'q. Bu haqda tilshunoslikda turlicha qarashlar mavjud bo'lib, ba'zi olimlar so'zning konnotativ ma'nosi so'z semantikasi komponentiga kirmaydi, degan fikrlarni bildirsalar, boshqa tilshunoslar konnotativ ma'no so'z semantik strukturasining bevosita tarkibiy qismlardan biri deb qaraydilar.

Ayrim tilshunoslar esa, konnotasiya so'z pragmatikasining bir qismi deb ta'riflaydilar. Ilmiy adabiyotlarda esa konnotasiya denotasiyaga ilova qilingan, til birligining konnotativ ma'no ifodasi, uning atrofini o'rav olgan qo'shimcha semalardir degan ta'riflar mavjud.

Konnotasiya til birlklari semantikasiga kiruvchi semantik mavjudlik bo'lib, u nutq subyektining borliqqa emotiv baholash va uslubiy belgilangan munosabatini ifoda etadi. Tilshunoslikda konnotasiyani tadqiq etishda xuddi shu tarzagi pragmatik baho hisobga olinmoqda. Pragmatika hozirgi davr tilshunosligida nisbatan torroq ma'noda tushuniladi. Fikrimizcha, tilda doimiy (turg'un) holatga ega bo'lgan pragmatik axborot lingistik qiziqish tug'dirdi. Ushbu fikrdan kelib chiqib, biz pragmatika deb, so'zlovchi tomonidan til birligida mustahkamlangan quyidagi uch narsaning baholashini tushunamiz: axborot predmeti bo'lgan borliqni, axborot mazmunini va adresatini.

Bevosita "pragmatika" terminini akademik V.V. Vinogradov ishlarida uchramaydi, ammo u tilning turli birliklarida real pragmatik ma'lumotlar mavjudligini qayd etadi.

"Pragmatika – hodisa, predmetni anglatib, so'z, shu bilan birga uning dinamik butunlikdagi, tarixiy borliqdagi aloqa va munosabatlarini ham bildiradi." Borliqning bir bo'lagini" va bu bo'lakning mazkur borliqning boshqa unsurlariga nisbatan munosabatini tushunishini aks ettiradi. Bu munosabatlarning muayyan davrdagi jamiyat va xalq tomonidan qanday anglashilgani va anglashilayotganini aks ettiradi".

Konnotasiya so'zining birinchi marta tilshunoslikda termin sifatida qo'llanilishini kuzatish murakkab. Biroq shuni aytish mumkinki, XIX asrning o'rtalarida sinonimik lug'atlar nazariyasi va ularni yaratish amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan ingliz leksikografik adabiyotida "konnotasiya" termini ikki xil ma'nosi shakllangan. Birinchidan, konnotasiya-so'zning izohida bevosita kiritiladigan leksik ma'nolarning "qo'shimcha" (modal, emosional – ekspressiv) elementlari deb qaralgan. Ikkinchidan, konnotasiya – narsa va borliqning boshqa obyektni qonuniy baholash so'zining bevosita leksik ma'nosiga kiritilmagan. XIX asrga kelib, konnotasiya so'zining yuqorida ko'rib chiqilgan ma'nolaridan tashqari yana bir necha ma'nolari (izohlari) borligi aniqlandi. Ushbu izohlar talqinida konnotasiya terminiga turli ta'riflar berilganligi aniqlandi. Chunonchi, konnotasiya denotasiyaga qaramaqarshi ma'no (logik qarash); konnotasiya so'zning sintaktik valentligi (psixolingvistik qarash); konnotasiya – majoziy unsurlarga (elementlarga) asoslangan ko'chma ma'no; konnotasiya leksik ma'noning majburiy bo'limgan, qo'shimcha ikkinchi darajali (fakultativ) unsuri (element) ekanligi qayd qilngan.

### Asosiy qism

Yevropa va rus tilshunosligida konnotasiya, konnotativ ma'no terminlari I.A. Melchuk, L.I. Iordanskaya, A.K. Jolkovskiy, K. Byuler, A.V. Isachenko, R.Tokariy, Y. Bartminskiy kabi yetuk olimlarning ishlarida uchraydi. Konnotasiya so'zining evolyusiyasi va uning turlicha qo'llanishi ta'rifi A.V. Barovskiy ishlarida to'liq yoritilgan. Ammo shuni alohida ta'kidlash lozimki, Y.J. Uotli XIX asrning eng mashhur kitobi "Selection of synonyms" (1951) "Sinonimlar saylanmasi" so'z boshida konnotasiya so'zining izohida bevosita kiritiladigan leksik ma'nolarning qo'shimcha (modal, emosional - ekspressiv elementlari) deb ta'riflangan. Rus tilshunosligida ham konnotasiya termini izohiga turlicha fikrlar orqali yondashilgan, V.V. Vinogradov, P.A. Pletnevning A.K. Grotga (1945-yil 29-sentyabr) yozgan maktubidan quyidagi iqtibosni keltiradi: "Men tilda mutlaq bir xil ma'noga ega bo'lgan so'zlar yo'qligini aniqladim, chunki leksik ma'no bilan birgalikda har bir so'z bilan miyaga asr, xalq, joy, hayot g'oyasi keladi. Buning hammasi oddiy misol "борода" va "брата" asosida aniqladim. Birinchi so'z o'quvchi xayolida rusni, uning erkagi, savdogari, ruhoniysi ko'rinishida gavdalantiradi. Ikkinchchi so'z esa, biz yahudiy patriarxlarni (oliy ruhoniylilik mansabi) davriga, sharq xalqlari hayotiga olib kiradi, chunki bu so'z ongimizda cherkov (ya'ni diniy) kitoblardan kirib qolib o'rashgan; Terminning bunday tafovutli bo'lishi tarixiy nuqtai nazardan aniq, bunga sabab bu termin turli xil fan doirasida yuzaga keladi. Shu sababdan garchi keyingi yillarda lisoniy birliklarning konnotativ aspektiga qiziqish ortgan bo'lsa-da, konnotasiya tushunchasi turli fan doirasida turlicha talqin etilmoqda. Jumladan, uslubshunoslikda konnotasiyaga uslubiy ma'no sifatida qaralib, uni emosional bo'yoq bilan bog'lab o'rganiladi. Tarjimashunoslikda konnotasiyaga pragmatik ma'no sifatida qaraladi. Ma'noni sistem aspektida o'rganuvchi semasiologlar konnotasiyaga ekspressiv bo'yoq, emotiv ifoda tarzida qaraydilar. Psixologik yo'nalishdagi tadqiqotlarga esa konnotasiyaga semantik assosiasiyalar sifatida yondashiladi. Ushbu terming qanday baho berilmasin, baribir uning asosiy vazifasi

## LINGUISTICS

nutq pragmatikasi bilan bevosita va uzlusiz bog'langan ta'sir etish funksiyasidir. Bu ta'sir ifodalanayotgan fikrning so'zlovchi uchun qay darajada muhimligini adresatga yetkazish jarayonida yuzaga chiqadi. Nutq subyekti bo'lgan so'zlovchining borliqqa munosabati-bu baholashi muhim sanaladi. Lingvistika doirasida yuqoridagi sanalgan ma'nolarning saqlanib qolinishini tushunish ancha mushkul, chunki konnotasiya terminini deyarli hamma ma'nolari uchun hozirgi tilshunoslik batafsil va mantiqan aniq tushunchalarga ega, ya'ni modallik doirasi, baholash komponenti, semantik – sintaktik valentlik va hokazo. Bunda konnotasiya terminiga daxldor bo'lib faqatgina bitta ma'no (izoh) qoladi, bu berilgan so'zning nomi bo'lgan bog'liq obyektining mazkur tilda qonunlashtirilgan baholanishidir.

So'z semantik strukturasini o'rganishda ikki xil konnotasiya mavjudligi qayd etiladi: ingerent konnotasiya – so'z kontekstdan tashqari olingan holatda unga xos bo'lgan konnotativ ma'no va adgerent konnotasiya - so'zda ma'lum kontekstda hosil bo'ladigan konnotativ ma'no. E.Qilichev o'zining "Badiiy tasvirning leksik vositalari" monografiyasida bu haqda asosli fikrlarni bayon etgan.Uning fikricha, konnotativ ma'no so'z semantikasidan denotativ ma'no ajratilgandan keyin hosil bo'ladigan ayirmaga teng, ya'ni konnotativ ma'no (K) teng so'z semantikasi.

(S) ayiruv denotativ ma'noga (D) yoki K=S-D.

Ingerent va adgerent konnotasiyani izchillik bilan farqlash lozim, chunki har ikkalasini farqlamasdan turib, na so'z semantikasini o'rganish va na konnotativ ma'noni so'zning semantik strukturasiga kirish kirmasligini hal etish mumkin. Har qanday konnotativ ifodalarda denotativ ma'noga xos ma'lum semalar saqlangan. so'zlovchi pragmatik maqsadini namoyon etishda ana shu sema (belgi)ni nazarda tutadi. Shu sababdan konnotasiya subyekti baholash va tushunish vazifasini bajaradi. Shu boisdan konnotasiyaga, oddiy birlashtiruvchi halqa sifatida emas, balki so'z (va boshqa til birliklari)ning barcha ma'nolari asosida obyektivlik va subyektivliklarni bog'lovchi vosita sifatida munosabatda bo'lish talab etiladi. Chunonchi, har qanday konnotativ ifodalarda denotative ma'noga xos bo'lgan ma'lum belgi (semalar), albatta, ifodalangan bo'ladi. Til tadqiqotchisi M.Mamataliyeva o'zining "O'zbek tilida nominativ birliklarning konnotativ aspekti" nomli ishida asosli faktlar bilan isbotlaydi.Uning fikricha, konnotativ ma'no tasodifan sodir bo'lmaydi, u ma'lum asoslarga tayangan holda paydo bo'ladi va har qanday konnotativ ma'noda denotativ ma'no saqlanadi.

Konnotasiya hozirgi davrda uch yo'nalishda o'rganilmoqda. Birinchi yo'nalish semantik yo'nalish bo'lib, J.Yelmesleva, R.Barta ishlarida ko'zga tashlanadi. Ikkinci yo'nalish psixolingvistik yo'nalish bo'lib, bu yo'nalishga xos fikrlar A.Leontev, L.Zalevskaya ishlarida olg'a surilgan. Uchinchi yo'nalish sof lingvistik yo'nalish bo'lib Sh.Balli, V.N.Teliya kabi tilshunoslarning ishlarida uchraydi. Ammo o'zbek tilshunosligida sof konnotativ yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar kam sonli bo'lib, pragmatikaga oid tadqiqotlardagina ayrim fikr-mulohazalar bildirilgan. Jumladan, o'zbek tilshunosligida ekspressiv bo'yoqning barcha turlarini o'z ichiga olgan tushunchalar keng tarqalgan bo'lib, ular quyidagilar: ekspressivlik (A.Abdullayev), uslubiy ma'no (G.Abdurahmonov, M.Sodiqova), metaforik ma'no (B.Umrzoqov), pragmatik ma'no (Z.Tohirova), stilistik sema (Sh.Rahmatullayev), ekspressiv ma'no ottenkasi (E.Begmatov), emosional ekspressiv bo'yoq (A.Shomaqsudov, B.O'rionboyev), konnotativ ma'no (E.Qilichev, A.Mamatov, S.Karimov), fonetik vositalarda ifodalangan konnotativ ma'no (A.Haydarov), fonografik vositalarda ifodalangan konnotativ ma'no (G.Yaxshiyeva) fonosemantik vositalarda konnotativ ma'no (Z.Qobilova). Tildagi barcha yaruslar bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lgani kabi, fonetika va stilistika o'rtaсидаги bog'lanish tufayli fonetik uslubiyat paydo bo'lgan.

Fonetik vositalarda ifodalanayotgan konnotativ ma'nolarning jozibadorligi tilning turli yaruslarida o'zaro aloqadorlikda namoyon bo'lganligi sababli ularda uslubiy imkoniyatlar katta bo'ladi. Odatda, tildagi biror xususiyat leksik va grammatic jihatdan to'la namoyon bo'lmasa, fonetik tomonidan ekspressiv shakllantirish natijasida to'ldiriladi.

Shunday qilib, barcha til birliklari konnotativ ma'nolarga ega. Ular tilshunoslar tomonidan bir qadar o'rganilgan. So'zdagi nutq tovushlarning turli xil talaffuzi xilma-xil konnotativ ma'nolarni hosil qiladi. Bunday ma'nolar so'zdagi denotativ ifodaga ilova bo'lib, u so'zlovchi va tinglovchining turli xil munosabati: ichki – hayajoni, xursandligi va xafa bo'lishi, rozilik, taajub, yalinish, hayratlanish, kinoya, istak – tilak, ta'sirlanishni aks ettiradi. Nutq tovushlarida ifodalangan konnotativ ma'no ularning paradigmatic va sintagmatik munosabatida yaqqol namoyon bo'ladi. Nutqning tovushning tuzilishi fikr mazmuni bilan organik bog'langan ahamiyatga ega bo'ladi. Badiiy nutqda adgerent konnotasiya boshqa nutq uslublariga qaraganda kuchli ifodalangan bo'ladi. Nutqda qo'shimcha ma'no bo'yog'i nafaqat unli yoki undosh tovushlarning turli xil talaffuzida, balki supersegment vositalar yordamida ham faol ro'yogha chiqadi.

**Xulosa**

Ma'lumki, barcha til birliklari konnotativ ma'noga ega. Ular tilshunoslar tomonidan bir qadar o'rganilgan. Shunga qaramay, bu sohadagi ilmiy izlanishlarni yanada davom ettirish davr talabidir. So`zdagi nutq tovushlarning turli xil talaffuzi xilma-xil konnotativ ma`nolarni hosil qiladi. Bunday ma`nolar so`zdagi denotativ ifodaga ilova bo`lib, u so`zlovchi va tinglovchining turli xil munosabati:ichki- hayajoni, xursandligi va xafa bo`lishi, rozilik, taajud, yalinish, hayratlanish, kinoya, istak-tilak, ta`sirlanishni aks ettiradi. Nutq tovushlarida ifodalangan konnotativ ma`no ularning paradigmatisk va sintagmatik munosabatida yaqqol namoyon bo`ladi. Nutqning tovushning tuzilishi fikr mazmuni bilan organik bog`langan badiiy ahamiyatga ega bo`ladi. So`z semantikasida 2 xil ya`ni ingerent va adgerent konnatasiy amavjudligi ta`kidlab o`tilgan. Badiiy nutqda adgerent konnatosiya boshqa nutq uslublariga qaraganda kuchli ifodalangan bo`ladi. Nutqda qo`shimcha ma`no bo`yog`i nafaqat unli yoki undosh tovushlarning turli xil talaffuzida, balki supersegment vositalar yordamida ham faol ro`yobga chiqadi. Fonetik uslubiyat, ya`ni tovush materiali, bo`g`in, urg`u hamda intonasiya turli konnotativ ma`nolar ifodalay olishini alohida ta`kidlash lozim.

Badiiy adabiyot tilni o'rganish va tahlil qilishning ham nazariy ham amaliy masalalari ko'pdan buyon filologlarni qiziqtirib kelmoqda. Chunki muayyan til stilistikasining rivojlanishida milliy badiiy adabiyot tilining ahamiyati kattadir. Badiiy asar tilida keng qamrovli birliklar fonetik, leksik, grammatick va majoziy vositalarni kuzatish mumkin. Shu bilan birga ijodkorning so`z boyligidan o'ziga xos tarzda foydalanishi, morfologik shakllar va sintaksik qurilmalarni tanlashi va boshqa jihatlarida yozuvchilarining individual uslubi ham yuzaga chiqadi.

Xuddi tanganing ikki tomonini ajratib bo`limganidek, badiiy adabiyot tilini yoki badiiy asarning alohida bo'laklarga ajratib qarash o'zini oqlamaydi. Badiiy asar tilning lingvistik tahlilida ham yozuvchining muayyan til birliklaridan foydalanib, qanday ma`no yuzaga chiqarishi o'z-o'zidan e'tiborga olinadi. Faqat bunda o'sha til elementlarining kelib chiqish faktiga chuqurroq yondoshiladi. Shuning uchun yozuvchi uslubini yuzaga chiqaruvchi omillar xususidagi masalaga lingvistik aspektda yondashish o'rinni deb bilamiz. Shu bilan birga, o'rni bilan adabiy tahlilga ham murojaat qilamiz. Tilning rivojlanishi umummilly adabiy til darajasida doim beqiyosdir. Shunday ekan, bugungi davr ingliz va o'zbek adabiyotiga o'z hissasini qo'shayotgan ijodkorlar asarlarining tili va uslubini o'rganish muhim ahamiyatga egadir. Ishimizda ingliz va o'zbek adabiyoti namunalari misolida badiiy nutq individualligining lingvistik xususiyatlarini ta'minlovchi omillar tilning barcha sathlari doirasida o'rganiladi.


**ADABIYOTLAR:**

1. Abduaizov. A., Ayub G'ulomov. *Intonasiya haqida* Ayub G'ulomov va o'zbek tilshunosligi// ToshDu ilmiy maqolalar to'plami. -T.: 2004. -B.9-11.
2. Abduaizov. A O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi.//Toshkent . O'qituvchi 1992-134b.
3. Abduaizov. A Fonostistik vositalarning o'rganilishiga doir//O'zbek tili va adabiyoti. -T.: 1985 №2- B .24-28.
4. Abdullayev. A Ma'no kuchaytirishning fonetik usuli// O'zbek tili va adabiyoti, 1969, №2. 55-58-b.
5. Abdullayev. A Hozirgi o'zbek tilida ma'no kuchaytirishning fonetik va morfologik usuli. *Filol.fan.nomz.diss.* -T.: 1970. 122b.
6. Abdullayev. A O'zbek tilida ekspressivlikning ifodalaniishi. -T.: Fan, 1983. 88b.
7. Abdullayev. A Ko'chirma gapli konstruksiyalar komponentlari o'rtasidagi intonatsion munosabat// O'zbek tili Grammatik qurilishi, leksikologiyasi va dialektologiyasi masalari SamDu ilmiy ishlar to'plami. V chiqish.- Samarqand. 1976. -B.52.
8. Abdullayev F.Cho'ziq unlilarning tabiatini to'g'risida // Ozbek tili va adabiyoti. -T., 1959-№3-B.44-46.
9. Abdurahmonov.X., Maxmudov.N. So'z estetikasi. -T.: "Fan". 1981. 58 b.
10. Аванасьев . Р.И Фонетика современного русского литературного языка:N., 1965.-C.312.
11. Азнаурова . Э.С. Очерки по стилистике слова. -Т.: Фан. 1973.
12. Айдарова.В.Н.Фонетические средства стилистики –Л.:1971б-C359-364.
13. Антипова. Д.Н.Сопроводительный курс фонетики и интонации. -М.:1977.C.46.
14. Арнольд.И.В Стилистика современного английского языка.- М.,"Просвещение", 1990.-C.209-221.
15. Артемов .Е.А. Об .Интонеме//phon.Basel, no V.1965. 12-№34.
17. АстафьеваИ.М Виды синтактических повторов, их природа и стилистическое использование. 1962-C.14-16.

## LINGUISTICS

---

18. Axmedova.N.SH. *O'zbek tilida murojaat birliklarining semantic-konnotativ tadqiqi. Filol.fan.nomz.diss.avtireferati.* T.2008-25b.
19. Ayub G'ulomov. *O'zbek tilida urg'u.* 1947.32b.
20. Балли. Ш. Французская стилистика-М.,1961,c214.
21. Баринникова К.О.О Лингвистическом аспекте фоностилистических исследован ий.(звуки, словесный акцент. Интонация).- Вильнюс. 1972-с267-278.
22. Boboxonova.L.T.*Ingliz tili stilistikasi.* –Toshkent. "O'qituvchi", 1995.140b.



**"SCIENTIFIC REPORTS  
OF BUKHARA STATE  
UNIVERSITY"**

The journal was composed  
in the Editorial and  
Publishing Department of  
Bukhara State University.

**Editorial address:**  
Bukhara, 200117  
Bukhara State University, main  
building, 2<sup>nd</sup> floor, room 219.  
Editorial and Publishing  
Department.  
<https://buxdu.uz/32-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/131/131-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/>  
e-mail:  
[nashriyot\\_buxdu@buxdu.uz](mailto:nashriyot_buxdu@buxdu.uz)

Printing was permitted  
29.04.2023 y. Paper format  
60x84,1/8. Printed in express  
printing method. Conditional  
printing plate – 35,30.  
Circulation 70. Order № 30.  
Price is negotiable.  
Published in the printing house  
"Sadreddin Salim Buxoriy" LLC  
Address: Bukhara,  
M.Ikbol street, 11